

20-May, 2026-yil

LOGOPEDNING KASBIY FAOLIYATIDA PEDAGOGIK TEXNIKANING AHAMIYATI

Barno Xodjiakbarovna Xusniddinova

O`zMPU Logopediya kafedrasida o`qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada logopedning kasbiy faoliyatida pedagogik texnikaning tutgan o`rni va ahamiyati yoritilgan. Pedagogik texnika logopedning nutqi, mimika va pantomimikasi, pedagogik muloqoti, emotsional boshqaruvi hamda ta`lim jarayonini samarali tashkil etish ko`nikmalarini o`z ichiga oladi. Maqolada logopedning kasbiy mahoratini oshirishda pedagogik texnikaning o`rni, bolalar bilan individual yondashuvni tashkil etishdagi ahamiyati hamda korreksion-pedagogik jarayon samaradorligiga ta`siri tahlil qilingan. Shuningdek, logopedik mashg`ulotlarda pedagogik texnikadan samarali foydalanish orqali bolalarning nutqiy faolligi, kommunikativ qobiliyatlari va psixologik moslashuvini rivojlantirish imkoniyatlari ko`rsatib berilgan.*

Kalit so`zlar: *logoped, pedagogik texnika, kasbiy faoliyat, korreksion-pedagogik jarayon, nutq nuqsonlari, kommunikativ kompetensiya, pedagogik mahorat, mimika, pantomimika, pedagogik muloqot, logopedik mashg`ulot, individual yondashuv, emotsional boshqaruv, nutqiy rivojlantirish, professional kompetentlik.*

Pedagogik texnika - logopedning nafaqat ta`lim-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo`lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari - bu avvalo, logopedning mahoratini belgilovchi kasbiy ko`nikmalar hisoblanadi, ya`ni, uning savodli va ifodali so`zlay olishi, o`z fikr-mulohazasini va bilimni tushunarli tilda ta`sirchan bayon qilishi, his-tuyg`usini jilovlay olishi, o`zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo`lishi, aniq imo-ishora, ma`noli qarash rag`batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so`zning cheksiz qudrati orqali, o`quvchilar ongiga va tafakkuriga ta`sir o`tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo`lishi kabilardir.

Logopedning pedagogik texnikasi qanday ko`nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida o`qituvchi ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida qanday tashkil qilishi, o`quvchilarga tarbiyaviy ta`sir ko`rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o`ziga jalb etib kelmoqda. Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo`lib o`rganiladi. Birinchi guruh komponentlari logopedning shaxsiy axloqiy fazilatlarini va xulqi bilan bog`liq bo`lib, ta`lim-tarbiya jarayonida o`z- o`zini boshqarish malakalarida(refleksiya) namoyon bo`ladi:

- ta`lim-tarbiya jarayonida o`z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);
- ta`lim-tarbiya jarayonida o`z hissiyatini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo`yata`sirlarga berilmaslik;

20-May, 2026-yil

- mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish. nutq sur’ati) bilishi va o‘z o‘mida qo‘llay olishi.

Ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib boradigan “O‘qituvchi-murabbiy professiogrammasi”da quyidagi hislatlar, ya’ni “Pedagogik texnika” malakalari mujassamlashgan bo‘lishini ta’kidlaydilar:

1. Logopedning shaxsiy xislatlari: bolalami sevishi, kamtarligi, dilkashligi, mehnatsevarligi;

2. Kasbiga xos bilimlari: ta’lim va tarbiya jarayoni mohiyatini bilishi, pedagogik va psixologik bilim asoslarini egallashi, o‘quvchilarning yosh j xususiyatlariga asosan psixologik imkoniyatlarini anglashi, tarbiyaviy ta’sir etishning samarali usullaridan oqilona foydalana olishi, ota - onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan faoliyat mazmunini puxta bilishi;

3. Kasbiga xos hislatlari: milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar, milliy an’ana va urf-odatlarining asl mohiyatini tushunishi, kuzatuvchanligi, pedagogik qobiliyatga egaligi, o‘zini qo‘lga olishi, o‘zini anglay olishi, pedagogik takt, nutq madaniyati;

4. Shaxsiy pedagogik uddaburonligi: dars mashg‘ulotlarida zamr materiallarni tanlay olishi, o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishi, ta’lim-tarbiya jarayonini istiqbolli rejalashtirishi, o‘quvchilar jamoasini boshqara olishi;

5. Tashkilotchilik malakalari: o‘quvchilar jamoasini uyushtira bilishi, turli ziddiyatli vaziyatlarda ham o‘quvchilar jamoasini boshqarishi, amaliy muammolarni hal etishda uddaburonligini namoyish eta olishi;

6. Kommunikativ malakalari: o‘quvchilarni o‘ziga jalb etishni bilishi, o‘quvchilar va ota-onalar bilan, maqsadga muvofiq, pedagogik muloqotlarni tashkil qilishi, o‘quvchilarning jamoada o‘zaro munosabatlarida bir xil muvozanatni tartibga solishi; 7. Gnostik malakalari: o‘quvchilarning asab, psixik holati darajasini aniqlay olishi, o‘z pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi, ustoz o‘qituvchilar mahoratini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganib borishi, psixologik va pedagogik adabiyotlardan to‘g‘ri foydalana bilishi, o‘quvchilar xulq-atvorini mukammal o‘rganishi;

8. Nazardan qolgan, qarg‘ish olgan, loqayd murabbiylar tarbiya maskanlariga qadam bosmasliklari kerak. Ular ishlayveradilar, ammo, o‘qituvchilikning noni yuqmaydi, ro‘shnolik ko‘rmaydilar, falokati arimaydi, niyatlariga yetmaydilar.

9. “Kasalga halollik buyuk ibodatdir”. O‘qituvchidan o‘z kasbiga sadoqatli bo‘lishni, fidoyilikni, yuksak ma’naviyatni, tinimsiz mehnat o‘quvchilarga nisbatan mehr va muhabbatni, halol va pokiza bo‘lishni talab qiladi. Bu, aynan, o‘qituvchi pedagogik texnikasining ham muhim xususiyatlaridan biridir.

Logopedning kasbiy faoliyatida pedagogik texnika juda muhim o‘rin tutadi, chunki u turli nutq nuqsonlari va nutq muammolarini tuzatishda yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi. Pedagogik texnika o‘quvchilar bilan muloqot qilish va ularni o‘qitishda qo‘llaniladigan usul va strategiyalar majmuasi hisoblanadi.

20-May, 2026-yil

1. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish:

- Logopedik ishda pedagogik texnikadan foydalanish bolalarning nutqini to'g'ri va aniq o'rganishlarini ta'minlaydi.

- Bolalarning rivojlanish darajasi va ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi.

2. O'quvchi bilan ishonchli munosabatlar o'rnatish:

- Logopedlar o'z o'quvchilari bilan ishonchli va do'stona munosabat o'rnatish uchun pedagogik texnikadan foydalanadilar, bu esa o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

- Bolalar bilan muloqot qilishning o'ziga xos usullari ularning ta'lim jarayoniga faol qatnashishlarini rag'batlantiradi.

1. Diagnostika va individual yondashuv:

- Pedagogik texnika logopedga har bir bolaning nutq rivojlanishini to'g'ri baholash va diagnostika qilishda yordam beradi.

- Har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, logopedik mashg'ulotlar rejasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Ta'lim jarayonini jonli va qiziqarli qilish:

- Bolalarning diqqatini to'plash va saqlash uchun pedagogik texnikadan foydalanish ta'lim jarayonini jonli, qiziqarli va interfaol qiladi.

- O'quv materiallarini o'quvchilarga tushunarli va qiyinchiliksiz yetkazishga yordam beradi.

3. Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish:

- Pedagogik texnika bolalarning nutqini va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

- Til nuqsonlarini bartaraf etishda bolalarga samarali yordam ko'rsatishni ta'minlaydi.

4. Muammolarni aniqlash va ularni hal etish:

- Logopedlar o'quvchilarning nutq muammolarini aniqlash va ularni samarali hal qilish uchun pedagogik texnikadan foydalanadilar.

- Nutqni tuzatishning innovatsion usullarini qo'llash imkonini beradi.

Logopedik faoliyatda pedagogik texnikaning ahamiyati shundaki, u bolalarning nutqini to'g'rilash, rivojlantirish va muammolarini samarali hal qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu texnika o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga, ularning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga va kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'll.-T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006.-159 b.

20-May, 2026-yil

2. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo‘llanma.-T.:BROK CLASS SERIS,2016.-84b

3. Qo‘chqarov D.U. Innovatsion yondashuvlvr asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish.Diss., Toshkent- 2022. 50-52 b

4. B.X.Khusniddinova Professional Competence And Its Components Of The Future Logoped Teacher. American Journal of Advanced Scientific Research (AJASR) ISSN: 2195-1381 Vol. 1 Issue 2, May – 2024, Pages: 107-108

